

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Urganch davlat universiteti rektori
v.v.b S.Xodjaniyozov
2025 yil 20 *avgust*

IJTIMOY-IQTISODIY FANLAR FAKULTETI
BIZNES VA BOSHQARUV KAFEDRASI

MOLIYA ASOSLARI
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 400000–Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lim sohasi: 410000–Biznes va boshqaruv
Ta'lim yo'nalishi: 60411200–Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

Urganch – 2025

Mazkur o'quv dastur Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti kengashining 2025-yil 29 -avgustdagi 1 -sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor: S.U. Xodjaniyazov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i: G.R. Matlatipov

Mazkur o'quv dastur "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" fakulteti Kengashining 2025-yil 28 -avgustdagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan (1 -sonli bayonnomasi).

Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti dekani: I.S. Abdullayev

Mazkur o'quv dastur "Biznes va boshqaruv" kafedrasining 2025 -yil 27 -avgustdagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan (1 -sonli bayonnomasi).

Biznes va boshqaruv kafedrasi mudiri: D.Y. Bekjanov

FAN TO'G'RISIDA MA'LUMOT

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
FINANC6	2025-2026	6	6	
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek		5	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Moliya asoslari	72	108	180

I. FANNING MAZMUNI

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda moliya, moliyaviy siyosat, moliyaviy munosabatlar, moliyaviy boshqaruv, moliyaviy nazorat, moliya nazariyalari, moliyaviy infratuzilma, moliyaviy yangiliklar, pul oqimlari harakati, pulning davriy qiymati va pul oqimlarining diskontli tahlili, moliyaviy hisobotlar, davlat va nodavlat moliyaviy muassasalarning moliyaviy faoliyati, moliyaviy risklar, kichik biznes moliyasi, startaplarni moliyalashtirish, sug'urta, xalqaro moliya munosabatlari va boshqa shu kabi moliyaviy tushunchalar bo'yicha yo'nalishga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirish hisoblanadi

Fanning vazifasi - talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, moliyaviy hodisa va jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish orqali fanning inson hayotidagi va jamiyatdagi o'rni hamda ahamiyatini ochib berish.

Moliya pul mablag'larini samarali va oqilona taqsimlanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu jarayon aktivlar, kapital (aksiyalar) va majburiyatlar shaklida namoyon bo'ladi; u shaxslar, bizneslar, hukumat va boshqa tashkilotlar o'rtasida pul oqimini xavf va daromad kontekstida optimal tashkil etish uchun zarur bo'lgan muassasalar va vositalarni taqdim etishini talabalarga anglatish.

Moliya asoslari fanini o'rganish talabalarga funksional moliyaviy ro'llarda ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni, ayniqsa miqdoriy (kvantitativ) yondashuv asosida puxta tayyorgarlikni beradi. Ushbu darajani olish sizni korporativ sektor uchun quyidagi sohalarida ishga tayyorlaydi: moliya bo'yicha guruh direktori, xazinador (treasurer), qimmatli qog'ozlar dileri, tovarlar bilan savdo qiluvchi, derivativlar savdogari, investitsiya bankiri, moliyaviy tahlilchi, investitsiya tahlilchisi, fond bozoridagi broker, bosh moliyaviy direktor, qo'shilish va qo'shib olish (M&A) bo'yicha mutaxassis, xavflarni boshqarish bo'yicha menejer yoki moliyaviy maslahatchi bo'lib ishlashda kerakli bilimlarni egallashda yordam beradi.

Korporativ moliyaning asosiy tamoyillarini va ularning korxonalar uchun ahamiyatini tanishtirish. Talabalarga biznes va moliya bozorlariga oid moliyaviy masalalar yuzasidan mustahkam bilim bazasini taqdim etadi.

**II. ASOSIY NAZARIY QISM.
MA'RUZA MASHG'ULOTLARI
3-SEMESTR**

No	Ma'ruza mavzulari	Soat
1.	Moliya faniga kirish, moliyaning mohiyati va funksiyalari	2
2.	Moliyadagi etik me'yorlar va Moliyaviy siyosat	2
3.	Moliyaviy tizimi va kapital tuzilmasi	2
4.	Moliyaviy boshqaruv va yashil moliya	2
5.	Moliyaviy rejalashtirish va uzoq muddatli mablag'lar manbalari va baholanishi	2
6.	Moliyaviy nazorat	2
7.	Davlat budjeti	2
8.	Budjet tizimi va tuzilmasi	2
9.	Davlat moliyasi	2
10.	Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi.	2
11.	Davlat maqsadli jamg'armalari	2
12.	Davlat krediti	2
13.	Sug'urta	2
14.	Uy xo'jaliklar moliyasi	2
15.	Xalqaro moliya	2
	Jami	30

3-semestr jami: 30 soat

No	Ma'ruza mavzulari
3-semestr	
1.	Moliya faniga kirish, moliyaning mohiyati va funksiyalari Moliya va davlatning vujudga kelishi, uning resurslarga bo'lgan ehtiyojining rivojlanishi. Tovar-pul, taqsimlash, qayta taqsimlash munosabatlari va moliya. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, taraqqiyot qonuniyatlari, tovar-pul munosabatlarining qamrab olish sohasi va ijtimoiy takror ishlab chiqarishdagi roli jamiyatning iqtisodiy tuzumi, davlatning tabiati va funksiyalari bilan belgilanishi. Moliyaning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini ifodalovchi ta'rif. Moliya va moliyaviy munosabatlarning xarakterli belgilari. Moliya yordamida ifodalanadigan pul munosabatlari. Moliya va YaIM hamda MDni taqsimlash va qayta taqsimlash. Zamonaviy iqtisodiyot va davlat moliyasi. Moliya va ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyotining darajasi. Mamlakat iqtisodiyotining ahvoli va moliya. Moliyaning moddiy mazmuni. Moliya iqtisodiy kategoriya sifatida. Moliya va baho. Moliya va kredit. Moliya va ish haqi. Moliya va soliq. Ularning o'xshash va farqli jihatlari. Moliyaning taqsimlash va nazorat funksiyalari. Ularning o'zaro bog'liqligi.
2.	Moliyadagi etik me'yorlar va Moliyaviy siyosat Moliyaviy siyosatning mazmuni va prinsiplari. Moliyaviy boshqaruvning barcha tizimi davlatning moliyaviy siyosatiga asoslanishi. Moliyaviy siyosatning moliyaviy boshqaruv tizimida eng asosiy element hisoblanishi. Moliyaviy siyosat davlatning moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyati ekanligi. Uning davlatning u yoki bu iqtisodiy va sosial rivojlanish dasturini amalga oshirish uchun tegishli moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga qaratilganligi. Moliyaviy siyosatning tarkibiy qismlari. Budjet siyosati, soliq siyosati, pul siyosati, kredit siyosati, baho siyosati, investitsion siyosat, sosial moliyaviy siyosat, boj siyosati. Budjet siyosatini belgilovchi omillar, uning faqat budjet jarayoniga tegishli emasligi.

3.	Moliyaviy tizimi va Kapital tuzilmasi Moliya tizimi haqida tushuncha va uning funksiyalari. Moliya tizimining bo'g'inlari. Davlat moliyasi va uning bo'g'inlari. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi. Uy xo'jaliklari moliyasi. Moliyaviy vositachi muassasalar va ularni moliya tizimidagi tutgan o'rni. O'zbekiston Respublikasi kredit tizimi. O'zbekiston Respublikasining budjet tizimi. O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi. Mahalliy moliya va uning bo'g'inlari. Iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi sharoitida moliya tizimining transformlashuvi jarayoni. Moliyaviy bozorlar va ularning moliya tizimidagi tutgan o'rni. Moliya tizimi va uni iqtisodiy islohotlarning milliy modeli bilan uyg'unlashuvi. Iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda moliyaning o'rni.
4.	Moliyaviy boshqaruv va Yashil moliya Moliyaviy boshqaruvning mazmun-mohiyati. Ta'rif, maqsadi va vazifalari. Moliyaviy boshqaruvning boshqariladigan (ob'ektlar) va boshqaruvchi (sub'ektlar) tizimlar yagonaligidan iboratligi. Moliyaviy boshqaruvning asosiy metodologik prinsiplari, konkret metodlari va shakllari. Moliyaviy rejalashtirish; bashoratlash (prognozlashtirish); dasturlashtirish; moliyaviy tartibga solish; moliyaviy nazorat; moliyaviy qonunlarni (qonunchilikni) qabul qilish; moliyaviy resurslarni jalb qilish. Moliyaviy boshqaruv organlari va ularning vazifalari. Moliya tizimini umumiy boshqarish va uni amalga oshiruvchi organlar
5.	Moliyaviy rejalashtirish va uzoq muddatli mablag'lar manbalari va baholanishi Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish tizimining asosiy bosqichlaridan biri rejalashtirish ekanligi. Uning istiqbolga yo'naltirilgan qarorlarni qabul qilish bo'yicha faoliyat deb talqin qilinishi. Moliyaviy rejalashtirishning ta'rif. Moliyaviy rejalashtirish va moliyaviy reja. Moliyaviy rejalashtirishning harakat etish doirasi. Uning asosiy vazifalari. Moliyaviy rejalashtirish amaliyotida qo'llaniladigan asosiy metodlar. Moliyaviy rejalashtirish jarayonining asosiy bosqichlari. Moliyaviy rejalashtirish turlari: strategik moliyaviy rejalashtirish; joriy moliyaviy rejalashtirish, ularning funksiyalari va o'ziga xos xususiyatlari.
6.	Moliyaviy nazorat. Moliyaviy nazorat: mazmuni, sohalari, ob'ekti, predmeti, tizimi, vazifalari, prinsiplari. Moliyaviy nazoratning ikki yo'nalishda qaralishi va ularning o'zaro bog'liqligi. Moliyaviy nazoratning predmetini ifodalovchi moliyaviy ko'rsatkichlar. Moliyaviy nazorat moliya funksiyalarining amalga oshirilish shakli ekanligi. Moliyaviy nazorat sohalari: davlat moliyaviy nazorati; nodavlat moliyaviy nazorati. Moliyaviy nazorat o'z ichiga oluvchi tekshiruvlar. Moliyaviy nazorat tizimining bir tipliligi va uning elementlari. Moliyaviy nazoratning oldida turgan eng asosiy vazifalar. Moliyaviy nazoratni tashkil etishning asosiy prinsiplari: mustaqillik; ob'ektivlik; kompetentlik (layoqatlilik, qodirlik); oshkoralik. Moliyaviy nazoratning amaliy xarakter kasb etuvchi prinsiplari: natijalilik; nazoratchilar tomonidan talab qilinadigan talablarning aniqligi va mantiqiyiligi; nazorat sub'ektlarining sotib oluvchanmasligi; tekshirish va taftish aktlarida keltirilgan ma'lumotlarning asoslanganligi va isbotlanganligi; preventivlik (moliyaviy buzilmalar ehtimolining ogohlantiriluvchanligi); moliyaviy jinoyatlar bo'yicha shubhalanilayotgan shaxslarning aybsizlik (sudgacha) prezumpsiyasi; turli nazorat organlari faoliyatlarining muvofiqlashtiruvchanligi;
7.	Davlat budjeti. Davlat budjeti - davlat moliyasining markaziy bo'g'ini sifatida. Davlat budjetining iqtisodiy kategoriya sifatidagi xususiyatlari. Davlat budjetining funksiyalari. Davlat daromadlarining shakllanish manbalari: daromadlarning ichki va tashqi manbalari. Mamlakat milliy daromadi va milliy boylukning bir qismi - davlat daromadlarining asosiy manbai sifatida. Davlat daromadlarini jalb qilish usullari: soliqlar; zayom chiqarish; emissiya; davlat mulkini ekspluatatsiya qilish va sotishdan kelgan daromadlar. Davlat buyurtmalari. Davlat budjeti

	daromadlarida to'g'ri soliqlarning tutgan o'rni. Davlat budjeti daromadlarida egri soliqlarning tutgan o'rni. Davlat budgetining boshqa daromadlari. Davlat xaridi tushunchasining mazmuni va bozor iqtisodiyoti sharoitidagi xususiyatlari. Davlat xarajatlari, ularning tarkibi. Davlat xarajatlarini amalga oshirish tamoyillari. Davlat budjeti xarajatlari va iqtisodiy islohotlar sharoitida budget xarajatlari tarkibidagi o'zgarishlar. Davlat budjeti xarajatlarning turkumlanishi. Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy soha xarajatlari, iqtisodiyot xarajatlari va boshqa xarajatlarning tutgan o'rni. Budget taqchilligini moliyalashtirish usullari. Budget taqchilligini moliyalashtirishning noinflyasion usullari. Budget taqchilligi va uni moliyalashtirish haqidagi iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari. O'zbekiston Respublikasi budget tizimida mahalliy budjetlarning tutgan o'rni. Mahalliy budjetlarning daromadlarini shakllanish manbalari va uning o'ziga xos xususiyatlari.
8.	Budjet tizimi va tuzilmasi. Budjet tizimining iqtisodiy mohiyati, prinsiplari, uni boshqarishdagi vakolatlari. Budget tuzilmasining mazmuni. Budget tuzilmasi klassifikatsiyasi. Budget jarayoni va uning bosqichlari. Budget tasnifining mohiyati.
9.	Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi. Davlatning moliyaviy salohiyati va uning xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi bilan o'zaro bog'liqligi. XYuSlarni isloh qilish va ular moliyaviy xo'jaligini qayta qurishning zarurligi. XYuSlarning faoliyatida sifat o'zgarishlarni amalga oshirish. XYuSlarni moliyaviy isloh qilishning asosiy vazifalari. XYuSlar, firmalar va korporatsiyalarni moliyaviy isloh qilishda kapitalizasiya jarayoni. Sof foydani va aktivlarni kapitalashtirish. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning ishlab chiqarish xarajatlari, foydasi va rentabelligi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning baho siyosati va baholarni shakllantirish asoslari.
10.	Davlat moliyasi. Davlat moliyasining mazmuni va bo'g'inlari. Yalpi ichki mahsulot qiymati va milliy daromadning taqsimlanishi hamda qayta taqsimlanishida davlat moliyasining ahamiyati. Davlat moliyasining nazariy asoslari. Markazlashtirilgan pul fondlar va ularni shakllantirish xususiyatlari. Iqtisodiyotdagi raqobat muhitini shakllantirishda davlat moliyasining ahamiyati. Iqtisodiyotdagi jami fiskal yuk tushunchasi va uni kamaytirish bo'yicha islohotlar. Jami fiskal yukni tashkil qiluvchi tarkibiy elementlari. Davlat moliyasining bo'g'inlari: davlat budjeti; budjetdan tashqari fondlar; davlat korxonalari moliyasi; davlat krediti. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yalpi ichki mahsulot va milliy daromad qiymatini davlat moliyasi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanish nisbatlarining o'zgarishi.
11.	Davlat maqsadli jamg'armalari. Davlat maqsadli jamg'armalarining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. Davlat maqsadli jamg'armalarining xususiyatlari. Davlat maqsadli jamg'armalarini tashkil yetishning ob'ektiv zarurligi va shart-sharoitlari. Davlat maqsadli jamg'armalarining vazifalari. Davlat maqsadli jamg'armalarini tashkil etishga ta'sir yetuvchi asosiy omillar. Davlat maqsadli jamg'armalarini tashkil etish tartibi va ularni shakllantirish metodlari.
12.	Davlat krediti. Davlat kreditining mazmun-mohiyati va funksiyalari. Davlat kreditining sub'ektlar o'rtasida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat yekanligi va unda davlatning qanday sifatlarda maydonga chiqishi. Davlat kreditida davlatning kafilga aylanishi. Davlat tomonidan kafolatning berilishi va markazlashtirilgan pul fondidagi o'zgarishlar. Kreditning bir turi sifatida davlat kreditining soliqlardan farq qiluvchi o'ziga xos jixatlari.
13.	Sug'urta. Sug'urta, uning iqtisodiy mohiyati va funksiyalari. Sug'urta o'ziga xos pul munosabatlarining yig'indisi. Sug'urtaning iqtisodiy kategoriya sifatida asoslanish prinsiplari. Sug'urta shakllari. Sug'urta tizimi va uning alohida elementlarining tavsifi. Sug'urta bozori va uning elementlari.

14.	Uy xo'jaliklar moliyasi. Moliya munosabatlarining umumiy tizimida uy xo'jaliklari moliyasi. Uy xo'jaligining ta'rif. Uy xo'jaligiga tegishli bo'lgan xarakterli xususiyatlar. Uy xo'jaliklari moliyasining har bir davlat moliya tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanishi va uning moliyaviy ahamiyati.
15.	Xalqaro moliya. Xalqaro moliyaning asoslari va rivojlanish tendensiyalari. Xalqaro moliya bilan bog'liq munosabatlar. Jahon iqtisodiy va moliyaviy muhitining shakllanishiga ta'sir etgan sezilarli o'zgarishlar. XXI asr bo'sag'asida jahon iqtisodiyotidagi asosiy tarkibiy tendensiyalar. Jahon banki va Xalqaro valyuta fondi. XTTBning Kelishuvlar moddalarining 1-moddasiga muvofiq maqsadlari va vazifalari. Valyuta kursi va valyuta bozorlari. Valyuta kursining inflyatsiyani hisobga olishga ko'ra almashuv kurslari.

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI 4-SEMESTR

No	Ma'ruza mavzulari	Soat
1.	Zamonaviy moliya: mazmun-mohiyati, o'rganishning ob'ektiv zarurligi va ahamiyati	2
2.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy qarorlar, Investitsiyalarni baholash	2
3.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy tizim va moliyaviy oqimlar	2
4.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy yangiliklar va moliyaviy bozorlar	2
5.	Moliyaviy bozor stavkalari	2
6.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy vositachilar	2
7.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy infratuzilma va moliyaviy tizimni tartibga solish	2
8.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy tashkilotlar	2
9.	Moliyaviy hisobot: mazmuni, funksiyalari va turlari	2
10.	Moliyaviy hisobotlardagi farqlanuvchi holatlar	2
11.	Moliyaviy hisobotlarda moliyaviy koeffitsientlardan foydalanish	2
12.	Moliyaviy hisobotlar va moliyaviy rejalashtirish	2
13.	Pulning davriy qiymati va pul oqimlarining diskontli tahlili. Moliyaning asosiy matematikasi	2
14.	Inson hayotida moliyaviy rejalashtirish	2
15.	Zamonaviy (amaliy) moliya va xavf (risklar)	2
	Jami	30

4-semestr jami: 30 soat
Jami: 60 soat

No	Ma'ruza mavzulari
1.	4-semestr Zamonaviy moliya: mazmun-mohiyati, o'rganishning ob'ektiv zarurligi va ahamiyati. Zamonaviy moliyaning mazmun-mohiyati. Zamonaviy moliyaning o'ziga xos xususiyatlari. Moliyaviy nazariyaning kontseptsiyalari va modellari. Moliyaviy nazariya tayangan doktrina. Zamonaviy moliyani o'rganishning ob'ektiv zarurligi, sabablari va ahamiyati. Shaxsiy pul mablag'larini samarali boshqarish va moliya. Moliya va biznes olamida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish. Qiziqarli va foydali kareraga erishish va moliya. Moliya va mamlakatning iqtisodiy siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi ongli fuqarolik qarorlari qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lish. Tafakkurni kengaytirish va moliya.

2.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy qarorlar, Investitsiyalarni baholash Moliyaviy qaror. Uning o'ziga xos xususiyatlari. Uy xo'jaliklari qabul qiladigan moliyaviy qarorlar va ularning asosiy tiplari: pul mablag'larini iste'mol qilish va jamg'arish to'g'risidagi qarorlar, investitsion qarorlar, moliyalashtirish xususidagi qarorlar, riskiy boshqaruv haqidagi qarorlar. Insoniy ehtiyojlar va moliya nazariyasiga muvofiq ularning moliyaviy qarorlar qabul qilishda aks etishi. Firmalar qabul qiladigan moliyaviy qarorlar. Firmalar qabul qiladigan moliyaviy qarorlarga ta'sir qiluvchi asosiy omillar. Jismoniy va moliyaviy kapital.
3.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy tizim va moliyaviy oqimlar. Moliyaviy tizim funktsiyalari. Iqtisodiy resurslarning vaqt bo'ylab, davlat chegarasi orqali va iqtisodiyotning bir tarmog'idan boshqasiga o'tish (joyini o'zgartirish) usulini ta'minlash. Riskni boshqarish (riskiy boshqaruv) usullarini ta'minlash. Savdoga imkon yaratadigan hisob-kitobni amalga oshirish va kliring usullarini ta'minlash. Moliyaviy resurslarni birlashtirish va turli korxonalarda egalikning bo'linishi mexanizmini ta'minlash. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida qaror qabul qilishning markazlashtirilmagan jarayonini muvofiqlashtirish imkonini beradigan narx-navo (baho) axboroti bilan ta'minlash. Stimulashtirishning psixologik muammolarini hal qilish usullarini ta'minlash.
4.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy yangiliklar va moliyaviy bozorlar. Moliyaviy yangiliklar va bozorning "ko'rinmas qo'li". Moliyaviy yangiliklarning tadbirkorlar va firmalarning harakatlari natijasida yuzaga kelishi. Innovatsiyalar va texnologiyalarning rivojlanishi. Moliyaviy bozorlar. Zamonaviy moliyaviy bozorning eng umumiy ko'rinishlari: pul bozori, kapital bozori, fond bozori, valyuta bozori. Moliyaviy bozorda moliyaviy aktivlarning sotilishi va sotib olinishi. Moliyaviy aktivlarning asosiy turlari: qarz majburiyatlari, aksiyalar, hosilaviy qimmatli qog'ozlar. Davlat qimmat qog'ozlarini fond bozorida joylashuvi.
5.	Moliyaviy bozor stavkalari. Foiz stavkalari va ularning turlari. Foiz stavkasining darajasiga ta'sir etuvchi omillar. Riskli aktivlarning daromadlik stavkalari va ularning o'lchash tartibi. Kapital daromadligi. Qo'yilgan kapitalning umumiy daromadligi. Bozoriy indekslar va indekslashtirish strategiyasi. Fond indekslari. Indeksatsiyalash. Investorning harajatlar darajasi nuqta nazaridan indekslashtirish strategiyasining ustunligi. Inflyatsiya va real foiz stavkalari. Nominal va real narx. Foiz stavkalarini tenglashtirish. Daromadlik stavkasi darajasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar.
6.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy vositachilar. Moliyaviy vositachilarning umumiy tarkibi. Banklar. Ularning asosiy funktsiyalari. Banklarning turlari. Universal banklar va tijorat banklari. Ixtisoslashtirilgan banklar. Depozit-jamg'arma tashkilotlari. Jamg'arma banklari, ssuda-jamg'arma assotsiatsiyalari va kredit uyushmalari. Sug'urta kompaniyalari. Ularning asosiy funktsiyalari. Sug'urta polislar. Sug'urta turlari. Sug'urta mukofotlari. Pensiya fondlari. Pensiyaning rejalashtirish dasturlari. Pensiya dasturlarining turlari. O'zaro fondlar. Ularning o'ziga xos xususiyatlari. Investitsion banklar va ularning asosiy vazifalari. Anderrayting va qimmatli qog'ozlarga obuna bo'lish. Venchur kompaniyalarga kapital tikadigan firmalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Axborot xizmatlarini taqdim etuvchi firmalar.
7.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy infratuzilma va moliyaviy tizimni tartibga solish. Moliyaviy infratuzilma va uning tarkibi. Buxgalteriya hisobi va sud ishlarini hal etish jarayonlari. Moliyaviy instrumentlar savdosiga ko'maklashuvchi hisob-kliring tashkilotlari. Moliyaviy tizim qatnashchilarining o'zaro munosabatlarini nazorat qiluvchi idoralar. Qimmatli qog'ozlar savdosi qoidalari. Buxgalteriya hisobi tizimlari.

8.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy tashkilotlar. Davlat moliyaviy muassasalari. Nodavlat moliyaviy muassasalar. Markaziy banklar va ularning asosiy funktsiyalari. Avtonomlik (mustaqillik). Markaziy banklar va to'lov tizimi. Ixtisoslash(tiril)gan moliyaviy vositachilar. Ularning o'ziga xos xususiyatlari va vazifalari. Mintaqaviy va butun dunyoviy moliyaviy tashkilotlar. Turli davlat hukumatlari moliyaviy siyosatini muvofiqlashtirishning zarurligi. Xalqaro hisob-kitoblar banki. Jahon banki. Xalqaro valyuta fondi.
9.	Moliyaviy hisobot: mazmuni, funktsiyalari va turlari. Moliyaviy hisobotning mazmuni. Moliyaviy qarorlar qabul qilishda ularning o'rni va roli. Moliyaviy hisobot funktsiyalari. Moliyaviy hisobot turlari: balans, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot, pul oqimlari to'g'risida hisobot. Moliyaviy hisobotga tushuntirish.
10.	Moliyaviy hisobotlardagi farqlanuvchi holatlar. Bozor va balans bahosi (kiymati) o'rtasidagi farq. Aktsiyalarning bozor kiymati (bahosi)ning va ularning balans kiymati (bahosi)ga mos kelmasligining asosiy sabablari. Nomoddiy aktivlar. Gudvil yoki firmaning ishbilarmon sifatida obro'si. Joriy narxlar asosida kayta baholash. Foydaning buxgalteriya va iqtisodiy mezonlari. Bozor va balans bahosi (kiymati) o'rtasidagi farqning foyda to'g'risidagi tasavvurga ham o'z ta'sirini ko'rsatishi. Buxgalteriyada foyda. Aktsiyadorlik daromadligi va aktsiyadorlik kapitali daromadligi o'rtasidagi farq. U umumiy (jami) aktsiyadorlik daromadligi. Aktsiyadorlik kapitali daromadligi normasi yoki ko'effitsienti.
11.	Moliyaviy hisobotlarda moliyaviy ko'effitsientlardan foydalanish. Moliyaviy ko'effitsientlar. Moliyaviy ko'effitsientlar o'rtasidagi o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar. Rentabellik ko'rsatkichlari. Aktivlarning aylanuvchanligi ko'rsatkichlari. O'z mablag'i yoki qarz olingan mablag'lardan moliyalashtirish yoki moliyaviy "dastak". Moliyaviy leverij ko'rsatkichlari. Likvidlik ko'rsatkichlari. Bozor qiymati (bahosi) ko'rsatkichlari. Moliyaviy ko'effitsientlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar. Moliyaviy "richag" (dastak) samarasi. Foiz stavkasi va faoliyat siklining ROE ga ta'siri. Moliyaviy ko'effitsientlardan foydalanish asosida tahlilni cheklash.
12.	Moliyaviy hisobotlar va moliyaviy rejalashtirish. O'sib borayotgan biznes: tashqi moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyoj. Firmaning barqaror o'sishi ko'effitsienti. Barqaror o'sish tenglamasini keltirib chiqarish. Aylanma kapitalni boshqarish. Likvidlik va kassa rejasini bajarish.
13.	Pulning davriy qiymati va pul oqimlarining diskontli tahlili. Moliyaning asosiy matematikasi Murakkab foizlar. Bo'lajak qiymatni hisoblash. Moliyaviy kalkulyator. Turli foiz stavkalari bo'yicha reinvestitsiya qilish. Qarzni uzish (qaytarish). Pulning keltirilgan (aylantirilgan) qiymati va diskontlash. Pul oqimlarini diskontlash asosida investitsiyalash. Ko'p sonli pul oqimlari. Bir necha pul oqimlarining bo'lajak va keltirilgan (aylantirilgan) qiymati. Annuitet va uning bo'lajak qiymati. Annuitetning keltirilgan (aylantirilgan) qiymati.
14.	Inson hayotida moliyaviy rejalashtirish. Umrud sug'urta shartnomasi. Sof keltirilgan (aylantirilgan) qiymatni hisoblash. Inflyatsiya va pul oqimlarini diskontlash asosida tahlil qilish. Inflyatsiya va bo'lajak qiymat. Inflyatsiya va investitsion qarorlar. Soliqlar va investitsion qarorlar. Keltirgan daromadli soliqqa tortilmaydigan qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilish.

15.	Zamonaviy (amaliy) moliya va xavf (risklar). Riskning mazmun-mohiyati. Riskiy boshkaruv. Riskka moyillik. Risk va iqtisodiy (moliyaviy) qarorlar. Uy xo'jaliklari duch keladigan risklarning turlari. Korxonalar duch keladigan risklarning turlari. Riskiy boshkaruvda hukumatning roli. Riskni boshkarish jarayoni: riskni aniqlash; riskni baxolash; riskiy boshkaruv usulini tanlash; tanlangan usullarni amalga oshirish; natijalarni baxolash. Riskni "o'tkazish" variantlari: xejirlashtirish; sugurtalash; diversifikatsiya.
-----	--

Ma'ruza mashg'ulotlari modul tizimida va multimediya qurilmalari bilan jixozlangan auditoriyalarda o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlar tashkillashtirishda zamonaviy pedogogik texnologiyalardan foydalanish va amaliy masalalarni kompyuter bilan jixozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bitta professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur.

AMALIY MASHG'ULOTLAR 3-SEMESTR

№	Mashg'ulot mavzulari	Soat
1.	Moliya faniga kirish, moliyaning mohiyati va funksiyalari	2
2.	Moliyadagi etik me'yorlar va Moliyaviy siyosat	2
3.	Moliyaviy tizimi va kapital tuzilmasi	2
4.	Moliyaviy boshqaruv va yashil moliya	2
5.	Moliyaviy rejalashtirish va uzoq muddatli mablag'lar manbalari va baholanishi	2
6.	Moliyaviy nazorat	2
7.	Davlat budjeti	4
8.	Budjet tizimi va tuzilmasi	2
9.	Davlat moliyasi	2
10.	Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi.	2
11.	Davlat maqsadli jamg'armalari	2
12.	Davlat krediti	2
13.	Sug'urta	2
14.	Uy xo'jaliklar moliyasi	2
15.	Xalqaro moliya	2
	Jami	30

3-semestr jami: 30 soat

AMALIY MASHG'ULOTLAR 4-SEMESTR

№	Mashg'ulot mavzulari	Soat
1.	Zamonaviy moliya: mazmun-mohiyati, o'rganishning obyektiv zarurligi va ahamiyati	2
2.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy qarorlar, Investitsiyalarni baholash	2
3.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy tizim va moliyaviy oqimlar	4
4.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy yangiliklar va moliyaviy bozorlar	2
5.	Moliyaviy bozor stavkalari	2
6.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy vositachilar	2
7.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy infratuzilma va moliyaviy tizimni tartibga solish	2
8.	Zamonaviy (amaliy) moliyaviy tashkilotlar	2

9.	Moliyaviy hisobot: mazmuni, funksiyalari va turlari	2
10.	Moliyaviy hisobotlardagi farqlanuvchi holatlar	2
11.	Moliyaviy hisobotlarda moliyaviy koeffitsientlardan foydalanish	2
12.	Moliyaviy hisobotlar va moliyaviy rejalashtirish	2
13.	Pulning davriy qiymati va pul oqimlarining diskontli tahlili. Moliyaning asosiy matematikasi	2
14.	Inson hayotida moliyaviy rejalashtirish	2
15.	Zamonaviy (amaliy) moliya va xavf (risklar)	2
	Jami	30

4-semestr jami: 30 soat

Jami: 60 soat

Amaliy mashg'ulotlar modul tizimida va multimediya qurilmalari bilan jixozlangan auditoriyalarda o'tkaziladi.

III. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular va topshiriqlar 3-semestr

№	Mustaqil ish mavzulari
1.	O'zbekiston Respublikasining moliya tizimi
2.	Moliyani boshqarishning mohiyati, zarurligi va ahamiyati
3.	Moliyani boshqarish organlari, ularning asosiy vazifalari, funksiyalari, huquq va vakolatlari
4.	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi, uning moliyani boshqarishdagi vazifalari, huquq va majburiyatlari
5.	O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi, uning moliyani boshqarishdagi vazifalari, huquq va majburiyatlari
6.	Moliyaviy nazoratning mohiyati, zarurligi tashkiliy shakllari
7.	Moliyaviy nazoratni tashkil etishning nazariy va huquqiy asoslari
8.	Umumdavlat nazorat organlari va ularning moliyaviy nazoratni tashkil etishi
9.	O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy resurslari, ularning manbalari, ishlatish yo'nalishlari
10.	O'zbekiston Respublikasi budget tizimini isloh qilishning dolzarb muammolari
11.	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida budget siyosatining xususiyatlari va vazifalari
12.	Bozor islohotlari sharoitida davlat ijtimoiy siyosatining moliyaviy muammolari
13.	Moliyaning zamonaviy konsepsiyalari va ularning hozirgi zamon xususiyatlari
14.	O'zbekiston Respublikasining moliya tizimi
15.	Moliyani boshqarishning mohiyati, zarurligi va ahamiyati
16.	Hozirgi sharoitda moliyaning roli va ahamiyati
17.	Korxonalar va uy xo'jaliklarini qisqa va uzoq muddatli moliyaviy qarorlari
18.	Turli tashkiliy-huquqiy shakllardagi korxonalar faoliyatini moliyaviy aspektlari
19.	Moliyaviy tizimning tarkibi va tuzilishi
20.	Korxonalar moliyaviy oqimlarining mohiyati va tasniflanishi
21.	Hozirgi sharoitda moliyaviy tizim funksiyalarini amalga oshirish amaliyoti
22.	Moliyaviy yangiliklar va ularning ahamiyati
23.	O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bozoringa rivojlanishi
24.	Rivojlangan mamlakatlarning biri misolida moliyaviy bozorning mohiyati, tuzilishi va rivojlanish ko'rsatichlari
25.	Tijorat banklar moliyaviy vositachi sifatida
26.	Sug'urta kompaniyalari moliyaviy vositachi sifatida
27.	Davlat moliyaviy infratuzilmasining asosiy elementlari
28.	Iqtisodiy subyektlar faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy tartibga solish instrumentlari

29.	Davlat ijroiya organlari va moliyaviy soha boshqaruvi
30.	Xalqaro moliya tashkilotlari va ularning ahamiyati

3-semestr bo'yicha jami: 90 soat

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular va topshiriqlar 4-semestr

№	Mustaqil ish mavzulari
1.	Xalqaro moliya tashkilotlari va ularning O'zbekiston bilan hamkorlik aloqalari
2.	Hozirgi zamon moliya siyosatining asosiy yo'nalishlari va istiqbollari
3.	Moliyaviy bozorning mohiyati, zarurligi, asosiy vazifalari va turlari.
4.	Moliyaviy bozor va uning moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashdagi ahamiyati.
5.	Moliya tizimi rivojlanishining asosiy yo'nalishlari.
6.	Uzoq muddatli moliyalashtirishning mohiyati va manbalari.
7.	Qisqa muddatli moliyalashtirishda pul okimining o'rni va ahamiyati.
8.	Moliyaviy oqimlar va ularni boshqarish.
9.	Moliyaviy nazariyalar
10.	Foiz stavkasiga hisob-kitob pul birligining ta'siri.
11.	Moliyaviy vositachilar va ularning turlari.
12.	Mintaqaviy va butun dunyoviy moliyaviy tashkilotlar faoliyati.
13.	Moliyaviy koeffitsiyentlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar.
14.	Pulning davriy qiymati va pul oqimlarining diskontli tahlili.
15.	Sof joriy qiymat qoidasining investitsion qarorlar qabul qilishdagi o'rni va ahamiyati.
16.	Inson hayotida moliyaviy rejalashtirishning ahamiyati.
17.	Moliyaviy hisobotlar va ularning korxonalar faoliyatini baholashda tutgan o'rni.
18.	Moliyaviy koeffitsiyentlar asosida tahlil samaradorligini oshirish.
19.	Diversifikatsiya - riskni kamaytirish yo'nalishi sifatida.
20.	Hedjirlash - moliyaviy risklarni pasaytirish usuli sifatida.
21.	Korxonani boshqarida moliyaviy hisobotning roli va ahamiyati
22.	O'zbekiston Respublikasida korxonalar moliyaviy hisoboti
23.	Korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilishning mohiyati va ahamiyati
24.	Korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilishning ko'rsatkichlari
25.	Korxonalarda moliyaviy rejalashtirish
26.	Pulning davriy qiymatini baholash metodlari
27.	Moliyaviy rejalashtirish uy xo'jaliklari moliyaviy resurslarini boshqarish elementi sifatida
28.	Investitsiya loyihalarini tahlil qilishning ahamiyati va metodlari
29.	Tijorat korxonalarida risklarning ahamiyati va tasniflanishi
30.	Risklarni minimallashtirish instrumentlari va metodlari
31.	Tijorat korxonalarida investitsiya portfelini tashkil etishning mohiyati, ahamiyati va instrumentlari
32.	Tijorat korxonalarida kapitalning tarkibi va tuzilishi
33.	Korxonalarda korporativ strategiyani ishlab chiqishning mohiyati va etaplari

4-semestr bo'yicha jami: 60 soat

Jami: 150 soat

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

IV. FANNI O'ZLASHTIRISH NATIJASIDA TALABA:

✓ moliyaning mohiyati va vazifalari, moliyaviy tizim, moliyaviy siyosat, uy xo'jaliklar moliyasi, moliyaviy boshqaruv, moliyaviy rejalashtirish va tartibga solish, moliyaviy nazorat, xalqaro moliya munosabatlari, davlat budjeti, davlat krediti, sug'urta munosabatlari, moliyaviy nazariyalar haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;

✓ moliyaviy qarorlar, moliyaviy yangiliklar va moliyaviy bozorlar moliyaviy risklar, kichik biznes moliyasi, startaplarni moliyalashtirish, moliyaviy vositachilar, moliyaviy hisobot: mazmuni, vazifalari va turlari, moliyaviy muassasalarda moliyaviy faoliyat jarayoni, moliya va investitsion portfelni shakllantirish, pulning davriy qiymati va pul oqimlarining diskontli tahlili, inson hayotida moliyaviy rejalashtirishni bilish va ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

✓ Moliyaviy ma'lumotlarni tanqidiy baholash, tahlil qilish va talqin qilish hamda asosiy moliyaviy modellardan va empirik usullardan foydalanishni namoyish eta olish.

✓ Investitsiya va moliyalashtirish bo'yicha qarorlar ishlab chiqish va ularni asoslab bera olish.

✓ Avstraliya Biznes Dekanlari Kengashi tomonidan tasdiqlangan moliya sohasidagi o'qitish standartlariga — bilim, qo'llash, mulohaza, muloqot va jamoada ishlash, shuningdek, refleksiya (o'zini tahlil qilish) tamoyillariga rioya qilish.

O'rganish natijalari

Fan bo'yicha maxsus bilimlar:

- Korporativ moliyaning asosiy tushunchalarini tushunish.
- Ushbu asosiy tushunchalar bilan moliya bozorlarida ishtirok etuvchi mutaxassislar va amaliyotchilarning qaror qabul qilish jarayoni o'rtasidagi bog'liqlikni anglash.
- Moliyadagi muhim masalalarga oid miqdoriy (kvantitativ) usullar va ularning qo'llanilishi bo'yicha bilim.
- Moliyaviy muammolar va masalalar qanday doirada ko'rilishini tushunish, bu esa to'g'ri tahlil qilish uchun poydevor yaratadi.

Fan bo'yicha maxsus ko'nikmalar:

- Korporativ moliyadagi asosiy tushunchalarning asosiy natijalarini tushuntirish va talqin qila olish, masalan, kapital tuzilmasi va dividend siyosatiga doir masalalar.
- Pulning vaqt qiymati va kapital budjetlashtirish kabi moliyaning asosiy tushunchalariga asoslangan matematik ko'nikmalarni amalda qo'llash.
- Moliyaning asosiy tushunchalariga tanqidiy yondashuv va ularni real hayotdagi masalalarga tatbiq etish.

Asosiy ko'nikmalar:

- **Muammo yechish va tahlil qilish:** zaruriy tahliliy va miqdoriy ko'nikmalarni qo'llash, moliyaviy asosiy tushunchalarni tushunish va ularni tahlil qilish.
- **Hisob-kitob (numeracy):** matematik va statistik ko'nikmalarni turli savollarga javob topishda qo'llash.
- **Rejalashtirish, tashkil etish va vaqtni boshqarish:** tegishli materiallarni takrorlash va baholashga tayyorlanish orqali.
- **Kompyuter savodxonligi:** Learn Ultra platformasidan o'quv materiallarini yuklab olish, bibliografik qidiruvlar o'tkazish va darslar hamda baholash uchun axborot topish orqali.

V. TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:

- ✓ ma'ruzalar;
- ✓ interfaol "Keys-Study" lar;
- ✓ seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- ✓ guruhlarda ishlash;
- ✓ taqdimotlarni qilish;
- ✓ individual loyihalar;
- ✓ jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar
- ✓ blis-so'rov;

VI. KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, kichik amaliy masalalarni yecha olish, mustaqil ravishda metodlar, strukturalar yarata olish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirishi kerak.

VII. ADABIYOTLAR RO'YHATI

Asosiy adabiyotlar

1. Боди З., Мертон Р. Финансы. Учебник. Пер. с англ. — М.: "Вильямс", 2007.
2. Malikov T., Olimjonov O. Moliya. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. - 920 b.
3. Malikov T. Moliya. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2018. -274 b.
4. Malikov T. Budget-soliq siyosati. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. - 404 b.
5. Nurmuhamedova V. Davlat budjeti. O'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisod-moliya", 2018. - 576 b.
6. Маркина Е.В. Финансы. Учебник. - М.: "КноРус", 2020.
7. Sultonov Sh., Chinqulov Q., G'ofurova U., Safarova N. Biznes moliyasi. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. – 358 bet.
8. J. R Zaynolov, S.S. Aliyeva, Z.O. Axrorov. Moliya: Korxonalar moliyasi. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2018.-268 b.
9. Финансы. Под редакцией проф. Романовского М.В. Учебник. 5-е. издание. М.: Юрайт. 2016, -554 с.
10. Fozilchayev Sh., Xidirov N. Moliyaviy risklar nazariyasi. O'quv qo'llanma. –T.: "Iqtisod moliya", 2019. - 240 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2909-sonli Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3151-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-60-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabrda "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-sonli Qarori.

5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 488 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 104 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 56 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. - 48 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: "O'qituvchi" MU, 2021. - 184 b.
10. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti. – 464 b.
11. Bodi Z., Merton R.S., Cleeton D.L. Textbook. Financial economics. New Jersey: "Pearson Education", 2016. – 500 p.
12. Барулин С.В. Финансы. Учебник. – М.: "КноРус", 2017. - 640 с.
13. Mehmonov S., Karimova Z., Tursunov A. Budget tizimi. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2018. – 544 b.
14. Нешитой А.С. Учебник. – М.: "Дашков и К". 2018. - 352 с.
15. Романовский М.В., Врублевская О.В. Финансы. Учебник. — М.: "Юрайт", 2013. -599 с.
16. Tashmuhamedova D. Budget g'azna ijrosi. O'quv qo'llanma. -T.: "Iqtisod-moliya", 2019. -440 b.
17. Шапкин А.С., Шапкин В.А. Экономические и финансовые риски. Оценка, управление, портфель инвестиций. Учебник. — М.: "Дашков и Ко", 2016. - 546 с.
18. Abduraxmonov I. Sug'urta nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2017. – 416 b.

Internet saytlari:

1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasining hukumat portali.
2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi.
3. www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi rasmiy sayti.
4. www.cbu.uz - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
5. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi rasmiy sayti.
6. www.soliq.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi rasmiy sayti.
7. www.openbudget.uz - O'zbekiston Respublikasi "Ochiq budget" portali.
8. www.scopus.com - xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasi.

9.	Mazkur o'quv dastur Durham universitetining iqtisodiyot, moliya, menejment va marketing ta'lim yo'nalishi uchun Investitsiyalar fanidan tuzilgan o'quv dastur (https://apps.dur.ac.uk/faculty.handbook/2024/UG/module/FINN1011) asosida takomillashtirilib, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
10	Fan/modul uchun mas'ullar: N.Xaytboyeva -UrDU, "Biznes va boshqaruv" kafedrası v.b.dotsenti, Z.Illamova- UrDU, "Biznes va boshqaruv" kafedrası v.b.dotsenti
11	Taqrizchilar: T.Rahimov-UrDU "Iqtisodiyot" kafedrası mudiri, dotsent D.Bekjanov-UrDU "Biznes va boshqaruv" kafedrası mudiri, dotsent